



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA’LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

|| 2023, № 5

*DJURAYEV Risbay*  
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.  
O‘z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-  
da № 0101-tartib raqami bilan  
qayta po‘yxatdan o‘tgan.

Jurnalda e’lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltiril-  
ganda «Uzluksiz ta’lim»  
jurnalidan olinganligi ko‘rsa-  
tilishi lozim.

## **Tahrir hay’ati:**

*Abdug’appor QIRQIZBOYEV  
Uzoqboy BEGIMQULOV  
Xolboy IBRAGIMOV  
Laylo AXMEDOVA  
Roxatoy SAFAROVA  
Leyla DJURAYEVA  
Dono G’ANIYEVA  
Lobar QARAXANOVA  
Dusmurod DJURAYEV  
Baxodir AKBAROV  
Komiljon KARIMOV  
Komiljon GULYAMOV*

## **Tahririyat manzili:**

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko‘chasi,  
174-uy.

O‘zPFITI  
Tel.: (71)-245-92-34  
(93)-503-52-07

e-mail: uzlusitztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **D.R.Babayeva, X.Sh.Ochilova**  
Maktabgacha ta'lrim tashkiloti, maktab hamda oilada pedagogik diagnostika faoliyatni tashkil etish muammolari
- 9 **L.B.Beknazarova**  
Shaxs innovatsion-ijodkorligini o'rganishning ilmiy-amaliy tajribasi
- 15 **G.A.Sanoyev**  
Uzluksiz ta'limga boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirishda ajdodlar meroidan faydalanan imkoniyatlari
- 20 **E.O.Sharipov**  
OTMDa ma'ruba va amaliy mashg'ulotlarni uzlukizlik tamoyili asosida tashkil etish bosqichlari
- 26 **I.H.Pinyozov**  
Iqtisodiy bilim berish asosida talabalarda tejamkorlik xususiyatlarini uzluksiz tarbiyalsh
- 31 **K.T.Suyarov**  
Ta'limgarayonida laboratoriya mashg'ulotlari – tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishda vosita sifatida
- 36 **N.O.Temirov**  
Integrativ yondashuv asosida kimyo fani uzluksizligini tashkil etish metodikasi
- 41 **R.Musurmonov, M.Musurmonov**  
O'quvchilalarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini klaster yondashuvlari asosida tashkil etish va boshqarish
- 45 **Sh.T.Yakubjonova**  
Ekologiyadan amaliy mashg'ulotlarni o'qitishda u兹viylik tamoyili pedagogik muammo sifatida
- 49 **B.P.Джуреева**  
Работа специалистов в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной среды
- 53 **P.Джуреев**  
Виды и возможности информационных технологий

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 59 **X.Kadirov**  
Uzluksiz ta'limgarayonida talabakarning mediakompetentligini ko'rsatkichlarining motivatsiyalari rivojlanishi

## MA'NAVİY TARBIYA

- 64 **Z.A.Xolmatova**  
Bo'lajak o'qituvchilarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi
- 68 **B.S.Axmadaliev**  
Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini pedagogik klaster yondashuv asosida takomillashtirish
- 71 **S.B.Karimov**  
Bolalar musiqiy idrokini rivojlantirishda fanlararo integratsiyalashuv
- 76 **B.T.Rajxanov**  
Формирование и развитие системы духовно-нравственного воспитания девочек подросткового возраста
- 83 **G.A.Berdalieva**  
Umumta'lim mktablari o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning pedagogik strategiyasi va konseptual asosi
- 89 **G.I.Sattarova**  
Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'smirlar hissiy-irodaviy sohalarining rivojlanishi
- 95 **Л.Зуфарова**  
Методы управления ДОУ
- 95 **B.Xusanov**  
Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari
- 101 **M.X.Abelqosimova**  
Uzluksiz ta'limgarayonida talabalarini ilmiy-takiqot saloqiyatni shakllantirish – pedagogik muammo sifatida
- 107 **З.Каримова**  
Реализация воспитательного аспекта в процессе обучения иностранному языку старших школьников
- 111 **З.Абдураззокова**  
Когнитивный метод музыкального развития детей дошкольного возраста



## TA'LIM JARAYONIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI – TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA YO'NALTIRISHDA VOSITA SIFATIDA

**K.T.SUYAROV,**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dosent*

*Maqolada umumumiyo'rta ta'limgaklar o'quvchilarini laboratoriya mashg'ulotlar orqali o'quv-tadqiqotchilik faoliyatiga olib kirish hamda fizik eksperimentni o'tkazishga qo'yilgan didaktik talablar muhokama qilingan*

**Kalit so'zlar.** Ilmiy bilish metodlari, eksperiment, tatqiqotchilik faoliyati, o'quvtadqiqot ishi, didaktik talablar.

*В статье рассматриваются лабораторные занятия, как средство направления учебно-исследовательской деятельности учащихся общеобразовательных школ, а также обсуждены дидактические требования к проведению физических экспериментов.*

**Ключевые слова.** Эксперимент, исследовательская деятельность, учебно-исследовательская работа, дидактические требования.

*The article discusses laboratory classes as a means of directing the educational and research activities of secondary school students, and also discusses didactic requirements for conducting physical experiments.*

**Key words.** Experiment, research activity, teaching and research work, didactic requirements

Hozirgi zamон fizika fanini o'qitish metodikasining muhim konsensual holatlaridan biri eksperiment bo'lib, u o'qitishda faqat vositagina bo'lib emas, balki o'rganish obyekti olam(tabiat)ni bilishning empirik metod yordamida o'zlashtirishning yo'li sifatida muhim o'rinni tutadi. Shu bois ham, umumiy o'rta ta'limi Davlat ta'limgaklar standartida fizika fanini o'qitish jarayoniga alohida e'tiborli faoliyatli yondashuv sifatida qaralgan.

Umumiy o'rta ta'limgaklar Davlat ta'limgaklar standartining metodik asosi tizimli – faoliyatli yondashuv bo'lib, u o'quvchilarining o'z-o'zini rivojlantirish va uzuksiz ta'limgaklar olish, faol o'quv-bilish faoliyatiga tayyorgarligini takomillashtirishni ta'minlashga imkon beradi. Fizika fanini o'rganishga mo'ljallangan o'quv dasturlari bo'yicha o'zlashtirish natijalarini tahlil qilib, aytish joizki, fanni o'qitish o'quvchilarida turli xil fizik hodisalarini o'rganish, fizik eksperiment vositasida nazariy va amaliy bilimlar mutanosibligini tekshirish ko'nikmalar shakllantirilganligi va ularni o'tkazish metodlarini puxta egallashlari bilan belgilanadi. Bundan ko'rindan, o'quvchilarini o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishga o'rgatish, ularni fizik eksperimentlar vositasida o'quv-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish fizika ta'limgaklarining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.



Umumiy o‘rtalim Milliy o‘quv dasturida «Laboratoriya ishi – o‘tilgan o‘quv materiali asosida tavsiya etilayotgan ishning maqsadi, uni bajarish tartibi va o‘tkazish uchun zarur jihozlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. O‘quvchi laboratoriya ishida o‘lchov ishlarini bajaradi, natijalari asosida jadvalni to‘ldiradi, hisoblaydi hamda xatoliklarni aniqlaydi va xulosa yozadi» – deb ta‘kidlanilgan [1]. Bundan ko‘rinadiki bugungi amaliyotda qo‘llanilib kelayotgan fan dasturlari o‘quvchilar tomonidan erishishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga e’tibor qaratilgan.

Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlarda mutaxassis-lardan nafaqat bilim, balki ulardan tadqiqotchilik va izlanuvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lishni taqozo etmoqda. Shu bois, o‘quvchilarni o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish va ularda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

«O‘quv-tadqiqot faoliyati», «o‘quv-tadqiqot ishi» terminlari o‘quv pedagogik adabiyotlarda va pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘p ishlataladi. Masalan, A.V. Leontovich o‘quvchilarni o‘quv faoliyatga tayyorlash – bu ularni mustaqil faoliyatga va o‘quv-tadqiqotchilik ishlariga jalb etish metodi, deb tavsiflaydi [2]. Umumiy o‘rtalimda o‘quv-tadqiqot ishi so‘zining ma’nosi o‘quv tavsifidagi faoliyat ishi mazmunida talqin qilinadi. Ilmiy-tadqiqot ishida bu faoliyat yangi bir natija bilan yakunlansa, o‘quv-tadqiqotda o‘quvchi shaxsining intellektual qobiliyatlarining (hamda fikrlesh faoliyati) rivojlanishi bosh maqsad qilinadi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki tadqiqotchilik faoliyati ilmiy asoslangan bilimlarni egallash usuli sifatida, mantiqiy tizimlashtirilgan mulohazalarning alohida turi asosida amalga oshiriladi. Bunda tadqiqotchilik faoliyatining tarkibiy qismi motiv, mazmun, maqsad va boholashdan iborat bo‘lib, ular o‘quv-tadqiqot faoliyati yo‘nalgan ob‘yektda, o‘quv-tadqiqot ishining ta‘minotida (o‘quv adabiyotlari, jihozlar), o‘quv-tadqiqot ishining bajarilish jarayonida faoliyatning beradigan mahsuli sifatida izchillik, uzviylik va tizimlilik talablariga amal qilinadi.

O‘quv-tadqiqot ishlarini bajarishda o‘quvchilarni eksperimentlarni bajarishga bo‘lgan qiziqishi(motiv berish)ga e’tibor qaratilish lozim. Bundan tashqari, o‘quvchilarning o‘quv-ijodiy faoliyatini rivojlantirishda oddiydan murakkabga tamoyiliga amal qilish, topshiriqlarning ishonchli yechimlarini topish, ularning to‘g‘riligini tekshirish, o‘quv-laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish fizikadan ta‘lim samaradorligini ta‘minlashning muhim omillari hisoblanadi.

Milliy o‘quv dasturida umumiy o‘rtalim muktabida fizika fanidan laboratoriya va loyiha ishlari tavsiy qilingan. Mazkur amaliy ishlar o‘quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, 8-sinfda «Prujina bikrligini aniqlash» laboratoriya ishida tayanchga osilgan prujinaga turli xil massali yuklarni osish orqali prujinaning bikrligini aniqlash maqsad qilinadi. O‘quvchiga mazkur laboratoriya ishi mustaqil tadqiqot ishi sifatida berilishi ularda



tadqiqotchilik faoliyatiga kirishiga turtki bo‘ladi. O‘quv-tadqiqot faoliyati o‘quvchining muammoni ko‘ra bilishi (berilgan tadqiqot ishi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish, tadqiqot muammosi yuzasidan o‘z g‘oyasini ilgari surish), axborotlar bilan ishlash, eksperiment rejasini tuzish, o‘lchov va hisoblash ishlarini bajarish kabi tadqiqotchilik ko‘nikmalar shakllanadi. Ma‘lum izchillikda rejali asosda tashkil etiladigan o‘quv-tadqiqotchilik tavsifdagi o‘quv eksperimentlari fizik hodisa, jarayon va qonunlarning o‘quvchilar tomonidan «subyektiv» kashf (masalan, tajriba natijalari bilan ishlab Guk qonuning bajarilish chegarasining aniqlanishi, natijalarini grafik, diagramma ko‘rinishida tasvirlash, natijalani umumlashtirib xulosaga kelish) qilinishida va ularning yangi bilimlarni o‘zlashtirishlarida muhim rol o‘ynaydi.

Har qanday fizik tajriba o‘quvchini mustaqil ishlashga da’vat etib, uni tajribadan olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishga, fikrlashga va mushohada yuritishga o‘rgatadi. Shu bois, eksperimentning qo‘yilishi va uni bajarish o‘quvchi uchun nofaol kuzatish jarayoni bo‘lmay, balki uni faol faoliyatga undashda foydali hisoblanadi. Fizik tajribalar asosida o‘quvchilarda nafaqat fizik oid tushuncha va bilimlar shaklanadi, balki ular eksperimentni qo‘yishdagi tashkiliy ishlar hamda uni o‘tkazish algoritmini ham o‘zlashtiradi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarni aniq ishslashga, boshlagan ishlarini yakuniga yetkazishga, o‘lchov asboblari va o‘quv jihozlari bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, laboratoriya ishlarini bajarishga maslahatguy bo‘lib, ularni eksperimentni o‘tkazishga va olingan natijalarni solishtirish, tahlil qilish hamda umumlashtirishga tayyorlaydi. Fizik eksperimentni bajarish jarayonida o‘quvchida amaliy ko‘nikmalar shakllanadi. Bular:

- 1) O‘lhash ko‘nikmasi (o‘lchov asboblaridan foydalanib uzunlik, massa, zichlik, hajm, kuch, bosim kabi kattaliklarni o‘lhashni o‘rganadi).
- 2) Hisoblash ko‘nikmasi (fizik katalikni formula asosida hisoblash, masalan, zichlik, kuch, ish kabilar).
- 3) Eksperiment qurilmasini yig‘ish ko‘nikmasi (masalan, elektr zanjir sxemasini tushunish, sxema asosida elektr zanjirini yig‘ish).
- 4). Tajribada olingan natijalarni qayta ishslash ko‘nikmasi (natijalarni grafik ko‘rinishda tasvirlash, natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish).

Fizik eksperimentlar o‘tkaziladigan har bir dars uchun o‘qituvchi maxsus tayyorlanadi. Odatta, ma‘lum mavzu bo‘yicha o‘tkaziladigan fizik eksperimentlarni metodik adabiyotlarda keltirilgan variantlaridan muhimlarini tanlashda, o‘qituvchidan yetarlicha bilim va tajriba talab qiluvchi murakkab jarayon sanaladi. Bunda muayyan mavzu bo‘yicha o‘tkaziladigan fizik eksperimentlar o‘zaro mantiqiy bog‘lanishga ega bo‘lib, navbatdagisi oldingisiga tayanishi va uni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Dars jarayonida o‘quvchilarning mavjud fizik eksperimentlarning o‘zaro bog‘lanishini ko‘ra olishi va tushunishiga alohida urg‘u berish maqsadga muvofiq.



Fizik eksperimentlar va ularni o‘tkazish metodikasiga ko‘ra tajriba natijalarining e’tiborli hamda hayratliligi jihatlari bilan alohida ajralib turadigan tomonlariga nazarni qaratish lozim.

Fizik eksperimentlarni o‘tkazishga qo‘yilgan asosiy metodik va didaktik talablar quyidagi larga amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalarning majmuadan tashkil topadi: fizik eksperimentlar dars mazmuni bilan uyg‘un bo‘lishi; o‘quv vazifasini hal qilish uchun zarur vaqt davomida o‘quvchi diqqatini unga jalb qildira olish; yetarli darajada maroqli va qiziqarli bo‘lishi lozim. Boshqacha aytganda, fizik eksperimentlar samaradorligining psixologik va pedagogik asoslari, mazmunining ko‘rsatmaliligi, dizayni o‘qituvchi bayonida uyg‘unlashganligi bilan belgilanadi. Shubhasiz, fizik eksperimentlarning samarali bo‘lishida o‘qituvchi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Chunki u o‘quvchilar va namoyish qilinadigan fizik hodisa orasida faol vositachi bo‘lib xizmat qiladi. Fizik eksperimentlarni muvaffaqiyatlari tashkil etish va o‘tkazishda o‘qituvchining metodik mahorati, uning texnik ma’lumoti va kompetentligi muhim sanaladi.

Fizik eksperimentlarga qo‘yiladigan asosiy talablar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin [3]:

1. Garchi har qanday tajriba o‘quvchi e’tiborini jalb qila olsa-da, biroq bunday jarayonning barqarorligini ta‘minlash, fizik eksperimentlarga qiziqish (motivatsiya) hosil qilish uchun uning maqsadini o‘quvchi anglaydigan darajada yaxshi tushuntirish kerak. Fizik eksperimentlarni maqsadsiz tashkil etish samara bermaydi. Fizik eksperimentlardan oldin o‘qituvchi uning vazifasi, u qanday nazariy bilimlarga asoslanib tashkil etilishini ma’lum chizma yoki sxemalar yordamida tushuntirsa, maqsadga erishish yo‘llari ko‘rsatilsa, mohiyati oson anglanadi.

2. O‘tkazilishi lozim bo‘lgan fizik eksperiment o‘quv dasturi bo‘yicha o‘tilishi hamda dars mavzusi bilan aynan mos holda tashkil etilishi muhim didaktik talablardan sanaladi.

3. Fizik eksperiment namoyish etiladigan qurilma, iloji boricha, sodda bo‘lishi lozim. Bu eksperiment mohiyatini va undan kelib chiqadigan xulosalarni oson anglashga yordam beradi.

4. Fizik eksperiment uchun kerak bo‘ladigan qurilmalar, asbob-uskunalar oldindan tayyorlab qo‘yiladi. Ular barcha texnik talablarga javob berishi lozim.

5. Fizik eksperiment ko‘ngildagidek chiqishi uchun u bir necha bor sinab ko‘rilgan bo‘lishi kerak. Fizik tajribaning ishonchli bo‘lishi, zarur bo‘lganda uni qayta ko‘rsatishni ta‘minlaydi.

Bulardan tashqari, maxsus metodik adabiyotlarda fizik eksperimentlar samaradorligini oshirishga qaratilgan qator didaktik talablar tavsiya etilgan. O‘qituvchi eksperimentning samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi didaktik talablar bilan yaqindan tanish bo‘lishi zarurligi uqtiriladi [4]:



– fizik eksperimentlarni o‘tkazishda xavfsizlikni ta’minlash uchun, fizika kabinetida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur;

– eksperimental qurilmada ko‘rsatilayotgan hodisa va jarayonlarning tushunarli bo‘lishi uchun o‘quvchining mavzuga oid nazariy tayyorgarligi yetarli bo‘lishi zarur;

– fizik eksperiment jarayonida muvaffaqiyatsizliklarning oldini olish maqsadida, mashg‘ulotlardan oldin o‘qituvchining eksperimentni o‘tkazib ko‘rishi, uni o‘tkazishga qancha vaqt talab etilishini aniqlash mashg‘ulot samaradorligini ta’minlashda muhim omillardan hisoblanadi. Fizik eksperimentning samarali o‘tishi, kutilgan natijalarga erishish muhim ahamiyatga ega, aks holda, o‘quvchilar ongida fizik eksperimentga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘ladi;

– fizik eksperimentni o‘qituvchi ma‘ruza bilan uyg‘un holda olib borishi maqsadga muvofiq, chunki tajribani faqat ko‘rish orqali kuzatishning o‘zi o‘tkazilayotgan tajribaning fizik mohiyati to‘g‘risida o‘quvchida to‘liq tasavvurni shakllantira olmaydi;

– fizik eksperiment davomida jarayon yoki hodisaning o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun o‘qituvchi eksperiment maqsadiga hamda eksperimentni o‘tkazish to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi bilan o‘quvchilarni oldindan tanishtirsa, rejalashtirilgan eksperimentning mohiyatini anglash samarali kechadi.

Yuqorida keltirilgan didaktik talablarga rioya qilingan holda, fizik eksperimentni tashkil etish, o‘rganilayotgan hodisa, jarayon va qonunlarning haqiqiyligi va ishonchlilagini dastlab sifat darajasida, so‘ngra miqdoriy darajada tasdiq topishini o‘quvchining ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantirishga xizmat qiladi. Bu talablarning bajarilishi o‘quvchilarga fizik eksperiment ahamiyatini va uni o‘quv-tadqiqot ishlarida qo‘llanilish yo‘llarini anglashiga yordam beradi hamda o‘z bilimlarini aniq amaliy masalalarni yechishda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga imkon yaratadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rtta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Fizika va astronomiya fanlari dasturi. ([https://t.me/dastur\\_muhokamasi](https://t.me/dastur_muhokamasi) - 2020)
2. Леонтьевич А.В. Об основных понятиях концепции развития исследовательской и проектной деятельности учащихся // Исследовательская работа школьников. - 2003. - №4. - С.12-17.
3. Крутова Н.А. Эмпирический метод познания в науке и школьном курсе физики // Физика в школе. М., 2007. - №7. С.13-21.
4. Suyarov K.T. O‘quvchilarni o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etishning metodik assoslari. Aniq va tabiiy fanlar o‘qitish sifatini oshirishda innovatsion yondashuv: integratsiya, metodologiya, amaliyot// Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent, Respublika ta’lim markazi, 2021. B.34-37.



*Jurnalning ushbu sonini  
tayyorlashda qatnashganlar:  
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan  
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan  
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK  
rayosatining 2013 yil 30 dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan  
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar  
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagи  
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi  
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.05.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$   
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.  
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.  
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**